

“TASDIQLAYMAN”

**“Ma’rifat” targ‘ibotchilar
jamiyati raisi**

_____ **B.Xusanov**

“ ” _____ **2025-yil**

**“MA’RIFAT” TARG‘IBOTCHILAR JAMIYATI A’ZOLARIGA
HAQ TO‘LASH VA TARG‘IBOTCHILAR FAOLIYATINI
MUVOFIQLASHTIRISH TIZIMI TO‘G‘RISIDA
YO‘RIQNOMA**

TOSHKENT – 2025

“Ma’rifat” targ’ibotchilar jamiyati a’zolariga haq to’lash va targ’ibotchilar faoliyatini muvofiqlashtirish tizimi to’g’risida YO’RIQNOMA

I. Umumiy qoidalar

1.1. “Ma’rifat” targ’ibotchilar jamiyati faoliyatining asosiy maqsadi aholi va yoshlar orasida mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ma’naviy-ma’rifiy yo’nalishlardagi islohotlarning mazmun-mohiyatini targ’ib qilishga qaratilgan ijtimoiy loyihalarni amalga oshirish, targ’ibot faoliyatiga mamlakat taraqqiyotiga salmoqli hissa qo’shayotgan olimlar, shoir, yozuvchi, teatr, madaniyat va san’at arboblardan iborat malakali mutaxassislarni jalb etish, faoliyatini muvofiqlashtirish, rag’batlantirish hamda ularni ma’naviy-ma’rifiy ijtimoiy targ’ibot loyihalariga keng jalb etish, aholiga ma’naviy ko’makchi sifatida faoliyatini tashkil etishdan iborat.

1.2. Targ’ibotchi – mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ma’naviy-ma’rifiy sohalarda amalga oshirilayotgan ijobiy o’zgarishlarni hamda ma’naviy qadriyatlar va bunyodkor g’oyalarni aholi ayniqsa yoshlar orasida keng targ’ib qiluvchi shaxs.

1.3. Jamiyatning targ’ibotchilarga haq to’lash tizimi faoliyati iqtidor va ilmni rag’batlantirish tamoyillari asosiga quriladi.

II. Jamiyat targ’ibotchilari

2.1. Targ’ibotchilar guruhini shakllantirish “Ma’rifat” targ’ibotchilar jamiyati tomonidan amalga oshiriladi (keyingi o’rinlarda Jamiyat deb yuritiladi) Markaziy apparat va Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazining Qoraqalpog’iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri bo’limlari rahbarlari bilan birgalikda kamida **25 nafardan** iborat bo’lgan davlat va jamoat arboblari, olimlar, ziyolilar, ijodkorlar, el orasida obro’e’tiborli va hurmatga sazovor bo’lgan kasb egalaridan tashkil topgan targ’ibotchilar guruhini tuzadi.

2.2. Targ’ibotchilar guruhiga a’zo bo’lish istagini bildirgan shaxslar o’z shaxsini tasdiqlovchi va boshqa tegishli hujjatlar (fuqarolik pasporti, diplomi, asosiy ish joyidan tavsiyanoma, STIR, JSHSHR, ma’lumoti haqida hujjat nusxalari, ma’lumotnoma-obyektivka) bilan birgalikda Targ’ibotchilar faoliyatini muvofiqlashtirish va monitoring qilish bo’yicha mas’ul bo’limga ariza taqdim etishi talab etiladi.

2.3. Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi va uning hududiy bo'linma tizimida shtat asosida faoliyat yuritayotgan shaxslar targ'ibotchilar guruhiga a'zo bo'lishi mumkin, biroq ularga targ'ibotchi sifatida haq to'lanmaydi.

III. Jamiyatning targ'ibotchilar guruhi a'zolariga qo'yiladigan talablar:

3.1. Davlat tilini mukammal bilishi, nutqi ravon, fikrni maqsadga muvofiq qo'llay oladigan shaxslar;

3.2. Muloqotga tez kirishuvchan, tashabbuskor, tashkilotchi va ijtimoiy faol bo'lishi;

3.3. Kasbiy pedagogik kompetentlik, kommunikabilnost, kreativ, tahliliy va tanqidiy fikrlash qobiliyatlariga ega bo'lishi;

3.4. Zamonaviy axborot texnologiyalaridan, shu jumladan, ijtimoiy tarmoqlar, elektron platformalardan erkin foydalana olishi;

3.5. Ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy-ma'rifiy sohalarda ko'p yillar davomida faoliyat yuritgan shaxslar;

3.6. Mamlakat taraqqiyotiga salmoqli hissa qo'shayotgan olimlar, shoir, yozuvchi, teatr, madaniyat va san'at arboblari, turli sohalarning malakali mutaxassisleri jamiyatning targ'ibotchilar guruhi a'zosi bo'lishi mumkin.

3.7. Ijtimoiy tarmoqlardagi faolligi:

- Telegramda rasmiy kanali va Facebook, Instagram ilovalarida shaxsiy sahifasiga ega bo'lishi, ushbu kanal va sahifalar orqali milliy qadriyatlarimiz, an'ana va urf-odatlarimizni targ'ib qilishga qaratilgan targ'ibot mahsulotlarini muntazam joylab borish;

- Respublika bosma matbuot nashrlarida sohaga oid ilmiy asoslangan maqolalarni chop etib borish;

- Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlarning mazmun-mohiyatini targ'ib qilishga qaratilgan teleintervyu va munosbatlardagi chiqishlarni muntazam amalga oshirish.

IV. Jamiyatning targ'ibotchilar guruhi a'zolarining vazifalari:

4.1. Jamiyat tomonidan tashkil etiladigan ijtimoiy targ'ibot loyihalari uchun buyurmachi tomonidan berilgan vazifani samarali amalga oshirish;

4.2. O'tkaziladigan ijtimoiy targ'ibot loyihalarni buyurmachining dasturi va belgilangan mavzu doirasidan chetga chiqmasligi hamda reglament qoidalariga qat'iy rioya qilishi;

4.3 Ijtimoiy targ'ibot loyihalarini amalga oshirishda odob-axloq qoidalariga rioya qilishi;

4.4. Targ'ibot-tashviqot ishlarida interfaol usullar va zamonaviy axborot texnologiyalaridan samarali foydalana olish ko'nikmasiga ega bo'lishi;

4.5. Targ'ibot loyihalaridagi faoliyatida oddiy, sodda va haqchil ma'lumotlarni tinglovchilarga yetkazib berish lozim.

V. Jamiyatga a'zo targ'ibotchilar bilan shartnomaviy munosabatga kirishish va haq to'lash tartibi

5.1. Jamiyat a'ziligiga qabul qilish, jamiyat nizomi, targ'ibotchilar faoliyatini tashkil etish va ularga haq to'lash yo'riqnomasiga asosan jamiyat raisi bilan tuziladigan fuqarolik-huquqiy shartnomasi asosida amalga oshiriladi.

5.2. Jamiyatning buyurtmasiga asosan hududiy targ'ibotchilar ijtimoiy targ'ibot tadbirlariga jalb etiladi va shu asosida targ'ibotchilarga haq to'lanadi.

5.3. Hizmat evaziga haq to'lash shartlari va miqdori, muddati ushbu yo'riqnomadan kelib chiqib shartnoma asosida belgilanadi.

5.4. Jamiyatga a'zo bo'lgan targ'ibotchilarga Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi, "Ma'rifat" targ'ibotchilar jamiyati tomonidan belgilangan faoliyat rejasi asosida tashkil etiladigan ijtimoiy loyihalardagi ishtiroki uchun haq to'lanadi.

5.5. Vazirlik idoralar, korxonalar va tashkilotlari bilan hamkorlikda amalga oshiriladigan ijtimoiy loyihalar, muhim sanalar, turli kasb bayramlari va boshqa jamoaviy tadbirlar munosabati bilan tashkil etiladigan ma'naviy-ma'rifiy kecha, o'quv-seminar, davra suhbatlari va ijodiy uchrashuvlarga jamiyat a'zolari (targ'ibotchilar)ni jalb etish belgilangan tartibda "Ma'rifat" targ'ibotchilar jamiyati bilan tuziladigan "pullik xizmat ko'rsatish shartnomasi" asosida amalga oshiriladi.

5.6. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, O'zbekiston Respublikasi bandlik va mehnat munosabatlari vazirligining 2019-yil 22-apreldagi "O'quv mashg'ulotlarini o'tkazganlik uchun mehnatga soatbay haq to'lash miqdorlarini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori asosida amalga oshiriladi.

5.7. Targ'ibotchilar faoliyatini monitoring qilish va ularga haq to'lash jamiyatning tegishli bo'limi tomonidan amalga oshiriladi.

Bunda:

- elektron platforma orqali va dalolatnoma shaklida ko'rsatilgan ma'lumotlar tegishli tartibda imzolanib rasmiylashtiriladi;
- har bir dalolatnoma bir nafar targ'ibotchi va bitta ijtimoiy loyiha uchun rasmiylashtiriladi;

- o'tkazilgan ijtimoiy loyihadagi ishtirokni asoslash uchun targ'ibotchi ma'ruzasi, dasturi, fotosuratlari maxsus elektron platformaga yoki dalolatnomaga ilova qilinishi lozim.

5.8. Hududlarda faoliyat yuritayotgan targ'ibotchilar haq to'lash Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazining hududiy bo'lim rahbari tomonidan taqdim etilgan tavsiya xati asosida jamiyatning tegishli bo'limi tomonidan monitoring qilinib, belgilangan tartibda jamiyat raisiga taqdimnoma kiritiladi.

5.9. Targ'ibotchilar "Ma'rifat" targ'ibotchilar jamiyati tomonidan har chorakda targ'ibot materiallari, uslubiy qo'llanmalar, tarqatma materiallar (slyaytlar, infografika, flaerlar, bukletlar shaklida) bilan ta'minlab boriladi.

5.10. Jamiyatning loyihalar ofisiga jalb etiladigan mutaxassislar va ekspertlarga haq to'lash ijtimoiy loyihalar uchun belgilangan smeta asosida haq to'lanadi.

5.11. Jamiyat tomonidan o'tkaziladigan ijtimoiy loyihalarga quyidagi mutaxassislarga belgilangan smeta asosida haq to'lanadi:

- Ekspertlar, turli soha mutaxassislari;
- O'quv-seminar trenerlari;
- Grafik dizayner;
- IT sohasi;
- Mobilograf;
- Tarjimon;
- Operator;
- Videomontajchi;
- SMM xizmati mutaxassisi;
- Ijtimoiy tarmoqlarda kontent yaratuvchi mutaxassis;
- Suxandon-jurnalist.

5.12. "Ma'rifat" targ'ibotchilar jamiyati tomonidan targ'ibotchilarni har chorakda monitoring qilib boriladi va eng faol targ'ibotchilar qo'shimcha rag'batlantiriladi hamda davlat mukofotlari, "Ma'naviyat fidoyisi" ko'krak nishoniga tavsiya etib boriladi.

5.13. Mazkur yo'riqnoma asosida, buyurtmachining talablaridan chetga chiqqan targ'ibotchilar tegishli tartibda targ'ibotchilar safidan chiqariladi.

**Ma’rifat” targ‘ibotchilar jamiyatida shartnoma asosida haq evaziga
xizmat ko‘rsatuvchi targ‘ibotchilarga soatbay haq to‘lash
MIQDORLARI**

T/r	Kontingent	Targ‘ibot tadbirlarini olib boruvchi shaxslar toifasi	Soatbay haq to‘lash bazaviy hisoblash miqdori (har bir ijtimoiy loyiha uchun)
1.	O‘zbekiston Respublikasi	1-toifa: Fan doktori yoki fan doktori (DSc) ilmiy darajasidan biriga, xorijiy mamlakatlarning unga tenglashtirilgan boshqa ilmiy darajalariga yoki professor ilmiy unvoniga ega bo‘lgan targ‘ibotchilarga, shuningdek, O‘zbekiston xalq artisti, O‘zbekiston (Qoraqalpog‘iston Respublikasi) xalq yozuvchisi (shoiri, jurnalisti) unvoniga ega bo‘lgan targ‘ibotchilar uchun	BHMning 1,30 % 490.000
2.	hududidagi idora, tashkilot, muassasa, harbiy qismlar va harbiy o‘quv bilimi yurtlari va mahalla guzarlari.	2-toifa: Fan nomzodi, falsafa doktori, (PhD) ilmiy darajasidan biriga, xorijiy mamlakatlarning unga tenglashtirilgan boshqa ilmiy darajalariga yoki dotsent ilmiy unvoniga ega bo‘lgan targ‘ibotchilarga, shuningdek, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi, xalq ta’limi (maorifi) a’lochisi unvoniga ega bo‘lgan targ‘ibotchilar	BHMning 75 % 280.000
3.		3-toifa: Ijodiy asarlari bilan	BHMning

		xalqqa tanilgan mashhur yozuvchi shoirlar, elga tanilgan madaniyat va san'at vakillaridan iborat targ'ibotchilar	75 % 280.000
4.		4-toifa: Ilmiy darajaga ega bo'lmagan, ilmiy izlanuvchilar, doktorantlar, OTMlarning katta o'qituvchilari, assistent va o'qituvchilari, turli kasb mutaxassislar	BHMning 55 % 200.000
5.		5-toifa: "Yosh targ'ibotchilar" guruhi a'zolari, bakalavr va magistrilar	BHMning 40 % 150.000

Изоҳ: "Ma'rifat" targ'ibotchilar jamiyati a'zolariga soatbay haq to'lash O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, O'zbekiston Respublikasi bandlik va mehnat munosabatlari vazirligining 2019-yil 22-apreldagi "O'quv mashg'ulotlarini o'tkazganlik uchun mehnatga soatbay haq to'lash miqdorlarini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori asosida amalga oshiriladi. Ushbu miqdorlar amaldagi BHMning o'zgarishiga qarab o'zgartirilishi mumkin.